

AQSH SOTSIOLOGIYASIDA NEOPOZITIVIZM YO`NALISHI G`OYALARI

Raximova Dinora Bustonovna

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti "Sotsiologiya" yo`nalishi 1-kurs talabasi.
+998(95) 803-19-04. Raximovadinora8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15295365>

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning o`rtalarida AQSHda shakllangan neopozitivizm yo`nalishining asosiy g`oyalari, metodologik tamoyillari va yetakchi vakillari tahlil qilinadi. Neopozitivizm sotsiologiyada emperik yondashuv obyektivlik va ilmiylikni kuchaytirgan metodologik oqim sifatida baholanadi.

Kalit so`zlar: neopozitivizm, emperik metod, statistik tahlil, sotsiologiya.

ИДЕИ НАПРАВЛЕНИЯ НЕОПОЗИТИВИЗМА В СОЦИОЛОГИИ США

Аннотация. В данной статье будут проанализированы основные идеи, методологические принципы и ведущие представители направления неопозитивизма, сформировавшегося в середине XX века в США. Неопозитивизм рассматривается в социологии как методологическое течение, в котором эмпирический подход усилил объективность и научность.

Ключевые слова: неопозитивизм, эмпирический метод, статистический анализ, социология

THE IDEAS OF NEOPOSITIVISM IN US SOCIOLOGY

Abstract. This article analyzes the main ideas, methodological principles and leading representatives of the direction of neopositivism, which was is assessed in sociology as a methodological current in which the emperical approach reinforces objectivity and scholarship.

Keywords: neopositivism, empirical method, statistical analysis, sociology

Sotsiologiya fani XX asrda o`z metodologik asoslarini mustahkamlab, yangi yondashuvlar orqali ilmiylik darajasini oshira boshladi. Ayniqsa, AQSH sotsiologiyasida shakllangan neopozitivizm oqimi, sotsiologik bilimni tabiat fanlariga yaqinlashtirish, ya`ni aniq, ishonchli va emperik asoslangan holga keltirish yo`lida muhim qadam bo`ldi. Bu yo`nalish Vena (logical positivism) g`oyalaridan ilhomlangan holda, sotsiologiyani emperik tadqiqotlar orqali rivojlantirishni maqsad qilgan. Neopozitivizm, o`zlarini ilmiy sotsiologiya vakillari yoki sotsiologiyada tabiiy-ilmiy yo`nalish vakillari, deb hisoblovchi umumiy bir g`oyada birlashgan va alohida bir necha maktablardan tashkil topgan yo`nalish hisoblanadi.

Vena to`garagi tarkibida tashkil topgan bu oqim keyinchalik AQSh sotsiologiyasiga kuchli ta`sir o`tkazib, XXasr boshlaridan emperik sotsiologiyani rivojlanishiga katta hissa qo`shdi.

Natijada, bevosita amaliy ishlarga e`tiborning kuchayishi oqibatida, sotsiologiya ijtimoiy ish bilan tenglashtirildi. Nazariy va metodologik bazaning yetishmovchiligi – ushbu davr kamchiligi sifatida emperizm va pragmatizm kabi xususiyatlarni namoyon qilgan. Buning natijasida emperik tadqiqotlarni sotsiologik nazaryalarga qarshi qo`yish hisobiga, ularning sotsiologik nazaryalarni ma`lum bir muddatda (15-20 yil) butun sotsiologiya sahnasidan surib chiqishga imkoniyat berdi.¹

Neopozitivizmning asosiy tamoyillariga quyidagilarni keltirib o`tishimiz mumkin.

1. Ilmiylik va empirik yondashuv

Neopozitivistlar sotsiologiyani tajriba, kuzatish va statistik tahlillarga asoslangan ilmiy faoliyat deb baholaydilar. Nazariyani faktlar bilan tekshirishga asoslanib, sotsiologik bilimni obyektiv va ishonchli qilishga intiladilar.²

2. Verifikatsiya prinsipi

Nazariy bilimlar faqatgina empirik asosda tekshirilib, tajriba bilan tasdiqlangandagina ilmiy deb hisoblanadi. Bu prinsip neopozitivizmning asosiy farqlovchi belgilaridan biridir.

3. Qiymat neytralligi (value neutrality)

Sotsiolog tadqiqotchi shaxsiy qarash, hissiyot va qadriyatlardan xoli bo`lishi lozim. Bu obyektivlikni ta`minlash va ijtimoiy hodisalarni xolis o`rganishga yordam beradi.

4. Statistik va matematik metodlarga tayanish

Tadqiqotlarda aniq, miqdoriy usullardan foydalanish, xususan so`rovnoma, test, modellash kabi metodlar sotsiologiyada chuqur ildiz otgan. Bu metodologiya sotsiologiyani raqamlar orqali tahlil qilish imkonini bergan.

5. Nazariya va amaliyot uyg'unligi

Neopozitivizm nazariyalarni amaliy hayotdagi hodisalar bilan bog`lashni va ularni empirik ma`lumotlar yordamida tekshirishni ustuvor hisoblaydi.

Neopozitivizmning asosiy g`oyalari quyidagilardan iborat:

1. Faktlar va kuzatishga tayanish: Sotsiologik bilimlar faqat empirik (tajriba orqali tekshiriladigan) faktlarga asoslanishi kerak. Subyektiv fikrlar yoki falsafiy taxminlar inkor qilinadi.

2. Obyektivlik: Tadqiqotchi shaxsiy qarashlarini ilmiy tahlilga aralashtirmasligi kerak.

Maqsad — jamiyat haqidagi obyektiv, aniq bilimlarni olish.

3. Ilmiy metodlarning ustuvorligi: Neopozitivistlar statistik tahlil, ijtimoiy so'rovlar, eksperimentlar kabi ilmiy metodlardan foydalanishni targ'ib qilganlar.

4. Nazariyalarni sinovdan o'tkazish: Har qanday sotsiologik nazariya empirik ma'lumotlar bilan tekshirilishi, tasdiqlanishi yoki inkor qilinishi kerak.

5. Qonuniyatlarni izlash: Neopozitivistlar jamiyatda ham tabiatdagi kabi umumiy qonuniyatlar mavjud deb hisoblaganlar.

Yetakchi vakillar

Paul Lazarsfeld — sotsiologiyada empirik tadqiqot metodologiyasini rivojlantirgan. Media, ommaviy aloqa va ijtimoiy ta'sir masalalarini o'rganishda statistik usullardan foydalangan.

George Homans — almashuv nazariyasini ilgari surgan, ijtimoiy munosabatlarni individual manfaat asosida tushuntirishga harakat qilgan.

Talcott Parsons — garchi funksionalizm tarafdori bo'lsa-da, uning ishlanmalari neopozitivistik metodologiyaga asoslangan.³

Xulosa

Neopozitivizm AQSh sotsiologiyasining zamonaviy rivojida ilmiy metodologiya, obyektivlik va empiriklik tamoyillarini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Bu yo'nalish sotsiologik tadqiqotlarni raqamli tahlil va eksperiment asosida olib borishga zamin yaratdi. ⁴Shu bilan birga, individual tajriba va subyektivlikni cheklashi sababli ayrim olimlar tomonidan tanqid qilindi. Biroq, uning sotsiologiya fanining ilmiylik darajasini oshirishdagi hissasi katta.⁵

REFERENCES

1. [Jiyanmuratova+Gulnoz+Sherbo'tayevna.pdf](#) .
2. Homans, G. C. (1961). Social Behavior: Its Elementary Forms. Harcourt, Brace & World.
3. Parsons, T. (1951). The Social System. Routledge.
4. Macionis, J. J. (2017). Sociology. Pearson Education.
5. Giddens, A. (2006). Sociology. Polity Press.